ANDIJON VILOYATI BULOQBOSHI TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 21-dekabr 312-1-20-Q/24 Buloqboshi tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-oktabrdagi 631- sonli qarori hamda Andijon viloyati hokimining 2024-yil 29-oktabrdagi 406-1-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha hududiy komissiyalar faoliyatini samarali tashkil etish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-maydagi PF-73-son Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-oktabrdagi 631-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan;

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha davlat komissiyasi hamda uning hududiy komissiyalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 631-sonli qarori hamda Andijon viloyati hokimining 2024-yil 29-oktabrdagi 406-1-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-sonli Farmoni bilan:

a) Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha davlat komissiyasining (keyingi o‘rinlarda — Davlat komissiyasi) tarkibi hamda uning hududiy komissiyalari (keyingi o‘rinlarda — hududiy komissiyalar) namunaviy tarkibi tasdiqlanganligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy axborot- tahlil markazi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi

huzuridagi Narkotiklarni nazorat qilish milliy markazi (keyingi o‘rinlarda — Milliy markaz) etib qayta tashkil etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha tuman komissiyaning tarkibi **1-ilova**ga;

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha tuman komissiya to‘g‘risidagi nizom **2-ilova**ga;

4. Tuman komissiyasi va mutassaddi idoralar:

bir oy muddatda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha tuman komissiyasining faoliyatini yo‘lga qo‘yish choralarini ko‘rsin.

5. Tuman hokimining ayrim qarorlari **3-ilova**ga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari (I.Tumanov) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **F.Bo‘taxonov**

Buloqboshi tuman hokimining
2024-yil 21-dekabrdagi
312-1-20-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha tuman komissiyasining

TARKIBI

1.	F.Bo‘taxonov	— tuman hokimi, **komissiya raisi**
2.	I.Tumanov	— tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, **komissiya raisining o‘rinbosari**
3.	X.Xolmatova	— tuman hokimining o‘rinbosari, oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i
4.	X.Yusupov	— tuman prokurori
5.	Lavozimi bo‘yicha	— tuman sudi raisi
6.	J.Tajiddinov	— Davlat xavfsizlik xizmati tuman bo‘limi boshlig‘i
7.	J.Mamatqulov	— tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i
8.	Lavozimi bo‘yicha	— tuman adliya bo‘limi boshlig‘i
9.	E.Iminov	— tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i
10.	J.So‘paqov	— tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i
11.	T.Davronov	— tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi boshlig‘i
12.	U.Gaziyev	— tuman sport bo‘limi boshlig‘i
13.	I.Ergashev	— tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i
14.	X.Jalolova	— tuman madaniyat bo‘limi boshlig‘i
15.	D.Ahmedov	— tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i
16.	X.Yuldashev	— O‘zbekiston mahallalar uyushmasining tuman boshlig‘i
17.	P.Adxamov	— tuman Yoshlar ishlari bo‘limi boshlig‘i
18.	Lavozimi bo‘yicha	— tuman hokimligining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha bosh mutaxassisi, **komissiya mas’ul kotibi**

Izoh: Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyani bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.

Buloqboshi tuman hokimining
2024-yil 21-dekabrdagi
312-1-20-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha tuman komissiyasi to‘g‘risida
NAMUNAVIY NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha tuman komissiyasi (keyingi- komissiya) faoliyatini tashkil etish tartibi, vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

2. Komissiya Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha hududiy komissiyasining (keyingi o‘rinlarda – Hududiy komissiyasi) joylardagi faoliyatini tashkil etuvchi va ishini muvofiqlashtiruvchi komissiyasi hisoblanadi.

3. Komissiya o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Davlat komissiyasi to‘g‘risidagi nizom, qarorlari, shuningdek, ushbu Nizomga amal qiladi.

4. Komissiya tomonidan tuman hududidagi davlat organlari va tashkilotlarining sohaga oid faoliyatlari o‘rganilib, tahlil qilib boriladi.

5. Komissiya o‘z faoliyatida hududiy komissiya oldida hisobdordir.

6. Komissiya quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha qaror qabul qilish vakolatiga ega:

Tuman komissiyasi tarkibini shakllantirish, hududda giyohvandlik vositalarining suiiste’moli va noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish;

tumanda giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq vaziyatni chuqur o‘rganib borish, natijasidan kelib chiqib uni sog‘lomlashtirish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Narkotiklarni nazorat qilish Milliy markaz (keyingi o‘rinlarda – Milliy markaz) va Hududiy komissiyalar tomonidan kiritilgan taqdimnoma bo‘yicha choralar ko‘rish;

yillik ish rejalar, komissiya qarorlari va bayonlarida belgilangan topshiriqlar ijrosidan kelib chiqib, tumandagi davlat organlari va tashkilotlari hamda tuman komissiyasining rahbar va xodimlarini rag‘batlantirish yoki intizomiy jazolash.

7. Komissiyaning o‘z vakolati doirasida qabul qilgan qarorlari tumandagi davlat organlari va tashkilotlari tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

8. Komissiya o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarishda tumandagi davlat organlari va tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

2- bob. Tuman komissiyaning asosiy vazifalari va funksiyalari

9. Komissiyaning asosiy vazifalari va funksiyalari hisoblanadi:

giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq vaziyatning asosiy omillari hamda tendensiyalarini aniqlash va prognoz qilish orqali, giyohvandlik va narkojinoyatlarning oldini olishga qaratilgan yillik va qisqa muddatli ish rejalar ishlab chiqish va ijrosini nazorat qilib borish;

tumandagi narkovaziyat, ahvolini kompleks baholash va natijasi asosida vaziyatni sog‘lomlashtirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish;

aholi orasida giyohvandlik va zaharvandlikning barvaqt profilaktikasi bo‘yicha tumanda samarali chora-tadbirlarni belgilash;

giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq vaziyatni tuman kesimida ilmiy-amaliy va axborot-tahliliy jihatdan chuqur o‘rganish hamda natijasi bo‘yicha tegishli tahliliy materiallar, taklif va tavsiyalar tayyorlash va hududiy komissiyasiga kiritish;

tumandagi davlat organlari va tashkilotlarining giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi va suiiste’moliga qarshi kurashish faoliyatini muvofiqlashtirish;

davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining ish rejalari ijrosi yuzasidan hisobotlarini eshitish va tanqidiy muhokama qilib borish;

aholi, ayniqsa xotin-qizlar va yoshlarda “giyohvandlikka qarshi immunitet”ni, o‘quvchi va talabalar orasida psixotrop moddalarni iste’mol qilishga murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini belgilash;

mahalla, qishloq, ovul, chegara hududlar va ta’lim muassasalarida giyohvandlik vositalarining suiiste’moli va ularning noqonuniy aylanishi oldini olish, zaharvandlikning barvaqt aniqlash bo‘yicha tizimli choralar ko‘rish;

giyohvandlik vositalarining nazorat qilish samaradorligini oshirish yo‘nalishida milliy va xalqaro konferensiyalar hamda simpoziumlarni o‘tkazishga ko‘maklashish;

hududdagi narkologiya muassasalari va huquqni muhofaza qilish organlarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga ko‘maklashish.

10. Komissiya qonunchilik hujjatlarida belgilanadigan boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Komissiyaning huquq va majburiyatlari

11. Komissiya o‘ziga yuklangan vazifa va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Tumandagi davlat organlari va tashkilotlaridan narkovaziyatning holati, giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga tegishli axborot, tahliliy va statistik ma’lumotlarni belgilangan tartibda bepul so‘rab olish;

giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish faoliyatida asoslantirilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida mutasaddi korxona va tashkilotlarda o‘rganishlarni tashkil etish;

giyohvandlikning holati, giyohvandlik vositalarining qonuniy va noqonuniy muomalasiga oid faoliyatni o‘rganishda mutaxassis jalb etish.

12. Komissiya qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

13. Komissiya quyidagilar uchun mas’uldir:

zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishiga;

Davlat va Hududiy komissiyalar tomonidan giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq vaziyat yuzasidan beriladigan topshiriqlar ijrosini ta’minlashga;

Tumanda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Hududiy komissiyaga hisobot kiritib borishga;

Tumandagi narkovaziyatni sog‘lomlashtirish bo‘yicha choralarni samarali tashkil etish yuzasidan mahalliy byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘larni jalb etilishini ta’minlashga.

4-bob. Komissiyaning faoliyatini tashkil etish

14. Tuman komissiyasining namunaviy tarkibi Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha hududiy komissiya raisi, viloyat hokimi tomonidan tasdiqlanadi.

15. Komissiyaga tegishlicha tuman hokimi raislik qiladi.

tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari tegishli tuman komissiyasi raisining o‘rinbosari hisoblanadi.

tuman hokimligining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari tegishli tuman komissiyasi kotibi vazifasini bajaradi.

16. Komissiya o‘z faoliyatini giyohvandlikning holati, giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga oid masalalarning muhokamasiga bag‘ishlangan majlislarni tizimli asosda o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiradi.

17. Komissiya majlislari tegishli davlat organlari va mutasaddi tashkilotlar rahbarlari hamda komissiya a’zolari taklif etilgan holda zaruriyatga ko‘ra, biroq har chorakda kamida bir marotaba o‘tkaziladi.

18. Majlisni tuman komissiyasi raisi, u bo‘lmaganda komissiya raisining o‘rinbosari o‘tkazadi.

19. Komissiyaning qarorlari komissiya majlisida ishtirok etayotgan a’zolarning oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo‘lganda raislik qiluvchining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

20. Komissiyaning qarorlari uning majlisi bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Komissiya majlisi bayonnomasi mas’ul kotib tomonidan imzolanadi va komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadi.

Buloqboshi tuman hokimining
2024-yil 21-dekabrdagi
312-1-20-Q/24-son qaroriga
3-ilova

O‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanayotgan ayrim qarorlari

R O ‘ Y X A T I

1. Buloqboshi tuman hokimining 2017-yil 27-apreldagi “Andijon viloyati hokimining qarori to‘g‘risida”gi 296-Q sonli qarori.